

## **OLTIN VOHA TEPALARI TILSIMI - TARIX KO'ZGUSIDA**

***Qurbanov Abbas Shonazarovich***

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM "Tarix va ijtimoiy fanlar"  
kafedrasini katta o'qituvchisi*

***Berdiyeva Gulrux Adilovna***

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM Axborot texnologiyalari va  
raqamli iqtisodiyot fakulteti 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatidagi tepaliklar tarixi,  
ularning geografik joylashuvi va o'ziga xos xususiyatlari ilmiy asosda tahlil etilgan.  
Mazkur maqolada vohaning qadimgi davri makonlari, qishloqlar va shaharlarning  
shakllanish, rivojlanish jarayonlari, o'rta asrlar davrining moddiy madaniyat  
yodgorliklari va ularning o'rganilish tarixi bayon qilingan. Keyingi yillarda  
arxeologiya sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar to'liq aksini topgan. Shuningdek,  
voha tepaliklarini bunyod etilishidagi o'ziga xos jihatlari izchil yoritib berilgan  
hamda o'rganilmagan ko'plab tarixiy tepaliklar sirini ochishga yosh tadqiqotchilar  
diqqat-e'tibori jalb etiladi

**Kalit so'zlar.** Tepa, Yerqo'rg'on, Zahhoki Maron, Shullektepa, Kofirtepa,  
Tallisortepa, Mo'dintepa, Sho'rtepa, Neko'ztepa, Kindiklitepa, Xo'jalitepa,  
Lag'montepa, Bobokenttepa, Kojortepa, Dag'aytepa, Poshtontepa, Xonobodtepa,  
Kosontepa, Kasbitepa, Ko'xna Fazli

Qadimiy Turonzaminning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida o'z o'rni va salohiyatiga  
ega bo'lgan Qashqadaryo vohasi-jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri sanaladi.

Istiqlol tufayli biz milliy o'zligimizni anglash, boy ma'naviy merosini teran  
o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldik. Noyob merosimizning o'rganilmagan  
qirralarini teran tadqiq etish ishlari keng ko'lamma izchillik bilan davom  
ettirilmoqda. Shu o'rinda Muhtaram Prezidentimiz tomonidan aytilgan quyidagi

so'zlari alohida diqqatga sazovordir. "Bizni havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor, havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor, havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor va men ishonaman, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz albatta bo'ladi". [1.]

Ma'lumki, vohamizning har bir qishlog'i va shahri o'zining boy tarixiga egadir. Ajdodlarimiz o'tmishini chuqur, xolisona va izchil o'rganish O'zbekiston tarixinining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Zero, o'tmishni teran bilmasdan turib, haqiqiy ma'nodagi bugungi va kelajak hayotni ravshanroq tasavvur qilib bo'lmaydi.

Insoniyat o'tmishini noyob qadimiylar arxeologik yodgorliklardan biri bo'lgan tepalarsiz to'la tasavvur etib bo'lmaydi. Tepa (arxeologiyada) - asosan, paxsadan ishlangan qadimiylar inshoatlarning xarobalari va ularni to'ldirgan madaniy qatlamlardan hosil bo'lgan do'nglik. Arxeologik yodgorliklarning ushbu turi O'rta Osiyo va Kavkazda (tapa), Yaqin Sharkda (arab. - tel, tall), Hindistonda va Bolqon yarim orolda (yun. - magula, makedoncha - tumba) uchraydi. Bu mamlakatlardagi sug'orma o'troq dehqonchilik xo'jaligi, aynan mazkur yerning o'zida ko'p asrlar va hatto ming yillar davomida qishloq (jumladan, shahar) mavjud bo'lishiga imkon bergen. Vaqt o'tishi bilan vayronaga aylana borgan inshoatlar yangilari uchun asos bo'lib xizmat qilgan va qishloq balandlashib brogan. 30-40 m ga yetgan tepaliklar ko'p qatlamlili bo'lib, ular mazkur yodgorlikning strategiyasini belgilashda muhim ob'yekt hisoblanadi (Namozgohtepa, Sopollitepa va boshqalar). Geografik joy nomlari tarkibida ham T. qo'shimchasi ko'p uchraydi (mas., Qo'rg'ontep, Oltintepa, Oqtepa va boshqalar).

Viloyatimiz hududidagi ba'zi tepalar haqida arxeologlar J.Kabirov, A.Sagdullayev, N.A.Egamberdiyeva, Ya.G'ulomov, A.I.Terenojkin, M.E.Masson, S.K.Kabanov, S.B.Lunina, R.H.Sulaymonov, M.H.Isomiddinov, O'.Mavlonov, A.Raimqulov, muarixlar-V.V.Bartold, L.A.Zimin, V.L.Vyatkin, P.Ravshanov, U.Uvatov, S.Po'latov, Nosir Muhammad, elatshunoslar-O.A.Suxareva, K.Shoniyozov, N.Ismoilov, O.Bo'riyev, Q.Nasriddinov, tilshunoslar-A.Shermatov, T.Nafasovlar asarlarida anchagina ma'lumotlar mavjud.

**Yerqo'rg'on**. Qadimgi shahar xarobasi (mil.avv.IX-VIII asrlar-mil.avv. VI asr) Qarshi shahridan 10 km shimolda joylashgan. Tarixiy manbalarda Bolo, Balam, Nashebolo deb tilga olingan. Yerqo'rg'onda dastlab Turkiston arxeologiya xavaskorlari to'garagi a'zolari (L.A.Zimin, I.Kastae) izlanishlar olib borishgan. 1936 yildan tadqiqotlar boshlangan. Keyinchalik arxeologlar A.I.Terenojkin (1946), S.K.Kabanov (1946-1972 tanaffus bilan), Ya.G'ulomov (1959-1964), M.Ye.Masson (1963-1964) tekshirishlar o'tkazilgan. 1973 yildan O'zRFA Arxeologiya institutining Qashqadaryo ekspeditsiyasi qazish ishlarini amalga oshirgan. [2.] Yerqo'rg'on xarobasi qal'a va shahristondan iborat bo'lib, umumiy maydoni 150 ga, burjlar bilan mustahkamlangan ikki qator mudofaa devori bilan o'ralgan. Ichki devori (balandligi 8 m gacha) beshburchak tarhli bo'lib, taxminan 40 ga maydonni o'ragan, atrofida handak mavjud. Unda qal'a, saroy majmuasi, ibodatxona kulollar maxallasi, turar-joylar va boshqalar joylashgan. Kulollar maxallasidan bir nechta xona, ustaxona qazib ochilgan, uning tagidan eng qadimgi mudofaa yedvori qoldiqlari topildi (millordan avv. VIII-VIII asrlar). Ibodatxona tsella (sajdagoh). Bir necha kichik xonlar hamda ayvondan iborat bo'lган. Shahar ikkinchi qator devorlari ichidan dahma, maqbara, temirchilar mahallasi kovlab o'rganilgan. Qazish vaqtida sopol idishlar (xum, xumcha, xo'qacha, kosalar, tova, qozon, tog'ora, qadah va boshqalar) diniy marosimlarda ishlatiladigan asboblar. Ma'budalarning sopol haykalchalari, Nakshab tangasi (VIII-VII asrlar), sug'd yzuvi namunalari, muhr nushasi topilgan. [3.]

**Zahhoki Maron.** Qarshi shahar temir yo'1 shohbekati yakinida joylashgan qadimgi qal'a-shahar xarobasidir, Afsonaviy shoh Zahhok nomiga qo'yilgan bu qal'a-shahar xarobasining balandligi 15 metr, maydoni 16 ga dan ortiq. Qal'aning tashqi aylana devori kengligi 30 mga yetadi, balandligi 7 m bo'lган. Shaharning markaziy qismida hashamatli qasr mavjud bo'lган. Shahar devor bilan o'ralgan hududi 2,25 kv.km edi. Arxeologik qazishlar Zahhoki Maron milloddan avvalgi I asrlarda ham hayot be reda mavjud bo'lganligini isbotlaydi. Milodiy V-VI asrlarda yirikligi jihatidan Yerqo'rg'ondan keyin ikkinchi o'rinda turgan. IX-XI asrlarga oid sopol idishlarning topilshi vayron bo'lган Zahhoki Maronning bir qismi o'rta

asrlarda ham ma'lum darajada rivoj topib, madaniy jihatdan yuksalganligini ko'rsatadi. Chingizzon avlodi Kebekxon 1318 yilda Zahhoki Maron qasri o'rnida Qarshi deb atalgan sardobani bunyod etgan.

**Shulluktepa.** Bu yodgorlik Yerqo'rg'onidan 5-6 km janubda, Qashqadaryo bo'yida joylashgan bo'lib, u yirik o'rta asr shahri Naxshab yoki Nasafning xarobasidir. Mazkur yodgorlik XIX asrning 90-yillardayloq podshoh Rossiyasi hukumati amaldorlari, tarix va qadimshunoslik bilan qiziquvchilar hamda havaskor arxeologlar tomonidan kuzatilib, turli estaliklar yozib qoldirilgan. Ilk arxeologik izlanishlar 1916 yilda L.A.Zimin tomonidan amalga oshirilgan. Keyinchalik esa yodgorlikni chuqurroq o'rganish uchun S.K.Kabanov va M.Ye.Masson tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Keng qo'lamli qazuv ishlari XX asrning 70-80 yillarda O'zRFA Arxeologiya institutining Qashqadaryo ekspeditsiyasi a'zolari B.D.Kochnev va V.A.Pirinlar tomonidan o'tkazilgan.

Shulluktepa (Nog'oratepa ham deyiladi) yodgorligi o'rnida dastlab III-IV asrlarda kichikroq istehkom barpo etilgan. Shulluktepa Qashqadaryoning yoyishib oqadigan joyidan o'mashgan bo'lib, salmoqli maydonga ega bo'lган. Tuxumsimon tepalik uzunligi 175 m ni eni esa 7 m ni tashkil etadi. Shulluktepa shimoldan janubga 500 metr sharqdan g'arbga tomon 400 metrga cho'zilgan. Shahriston va qal'a atrofidagi handakda zuluk (shulluk) qurt bo'lganligi sababli, tepalikning nomi shunday atalgan.

**Uzunqir.** Yodgorligi Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida joylashgan. U mil. avval VIII-VII asrlarda kichik manzilgoh sifatida shakllanib, mil. av. VII-VI asrlarda 70 ga maydonni egallagan vohaning ma'muriy markaziga aylangan. To'g'ri burchakli burj. Shinaklarga ega bo'lgan mustahkam mudofaa devoriga ega bo'lgan. Mudofaa devorining qalinligi 1,85 metr bo'lib, pastki qismi guvaladan, yuqori qismi esa pahsa va hom g'ishtdan qurilgan.

Yodgorlik 1981 yilda ToshDU O'rta Osiyo arxeologiyasi kafedrasи hodimlari tomonidan o'rganilgan. Tadqiqotlar natijasida topilgan sopol idishlar, bronza va temirdan yasalgan mehnat va harbiy qurollar shaharda hunarmandchilik taraqqiy etganligini ko'rsatadi.

Mil. av. VII-VI asrlarda Navtaka deb atalgan viloyat markazi Uzunqir bo'lgan. Mil. av. III-II asrlarda viloyat markazi yangi shaharga , ya'ni hozirgi Kitob shahri o'mniga ko'chadi. Uzunqir O'zbekiston hududidagi ilk shahar namunasi hisoblanadi. [4.]

**Sangirtepa.** Yodgorliklari Qashqadaryo o'rta oqimidagi Sho'rob daryosi bo'yida joylashgan. Sangirtepaning umumiy maydoni 3 hektardan iborat bo'lib, uning janubiy va g'arbiy tomonlarida mudofaa devorlari bo'lgan. Yodgorlikning ko'p qismi keyingi davrlarda dehqonchilik qilish uchun tekislanib yuborilgan. Tadqiqotlar natijasida u yerdan 6,85 metrga teng madaniy qatlam ochilib, 4 ta qurilish davri aniqlangan. Sangirtepaning ilk shakllangan davri mil. av. IX-VIII asrlar hisoblanadi.

**Kosontepa.** Koson tumanining janubi-sharqida joylashgan. O'lchami 200x150 m. Bu yerda milodning I asrida qishloq manzilgohi vujudga kelib. IV-V asrlarda qal'a bunyod etiladi va mug'ullar istilosiga qadar hayot davom etgan. XVII asrda yana qaytadan hayot davom etgan. Bu haqda undan avvalroq, ya'ni XV-XVI asrlardayoq vaqf xujjatlarida Koson eslab o'tiladi. Koson atamasi antik davr toponimi Ksenippanning buzilgan shaklidir. Bugungi kunda bu yodgorlik buzib yuborilgan. [5.]

**Kasbitepa.** O'lchami 180x120 m. O'rta asrlarda kasbi yoki Kazbion shaklda tilga olingan bu toponim aynan Kasbiga to'g'ri kelishini M.E.Masson birinchi bo'lib e'tirof etgandi. Kasbi Buxorodan Nasafga boriladigan karvon yo'lida joylashgan. Bu yodgorlik ham milodning boshida vujudga kelib, mo'g'illar istilosi natijasida shahar vayronaga aylanadi. XIV -XVI asrlarda bu yerda (asosan qo'rg'on o'rnida) yana qaytadan hayot boshlanganligi va davom etganligi aniqlangan. Yodgorlik S.K.Masson tomonidan o'r ganilgan.

**Ko'hna Fazli.** O'rta asr manbalari Bazda shaklida tilga olingan shahar xarobasi Ko'hna Fazli yodgorligiga to'g'ri keladi. IX-X sardarda Kelif va Nasaf orqali Buxoroga boradigan karvon yo'lida joylashgan bu shahar Nasaf viloyatidagi ikkita shahardan biridir. Ko'hna Fazli uch qismdan iborat: qo'rg'on, shahriston (o'lchami 150x100 m) va rabod (umumiy maydoni 55 ga). Qo'rg'on va shahriston

mustahkam devor bilan o'ralgan bo'lgan. Yodgorlik milodning boshlarida vujudga kelgan bo'lib, mo'g'ullar bosqini natijasida xarobaga aylangan. Yodgorlikni S.K.Kabanov 1946 yilda ruyxatga olgan va qisman qazuv ishlari o'tkazgan. Keyinchalik M.E.Masson va B.D.Kochnyevlar tomonidan o'rganilgan. Ammo bu yodgorlikda keng ko'lamli qazuv ishlari o'tkazilmagan.

**Poshtontepa.** Bu tepa Poshton qishlog'idan 1 km g'arbda joylashgan bo'lib, o'lchami 110x120 m. Ayni vaqtda yodgorlik qabriston bilan band. Yodgorlik V-XII asr bilan davrlashtirilgan. Shahriston maydoni 220x280 m. IX- XIII asr yozma manbalarida bashton shaklida tilga olib o'tilgan.

**Xonobodtepa.** Xonobod qishlog'inining shimolida joylashgan tepa. O'lchami 150x170 m. IV-IX asrlar bilan davrlashtirilgan. [6.]

**Sho'rtepa.** Yodgorlikning umumiy maydoni 0,8 ga teng bo'lgan. Eski Anhor kanalining qurilish munosabati bilan yodgorlik tekislanib yuborilgan. Shunday bo'lsada, u buzilmasdan avvalroq 1952-1953 yillarda S.K.Kabanov tomonidan qazuv ishlari olib boriladi. Tadqiqotlar davomida V- VI asrlarga taaluqli 12 ta tanga topiladi. Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra yodgorlikning o'rnida millodning I asrlarida paydo bo'lib, mo'g'ullar istolosiga qadar xayot davom etgan.

**Neko'ztepa.** Yodgorlik Koson tumani Neko'z qishlog'ida joylashganligi sababli, uning nomi bilan nomlangan. Balandligi 1,5 m, diametri 15x40 m. Yodgorlikda 1946 yilda S.K.Kabanov tomonidan qazish ishlari boshlangan o'rganilgan. Qazuv ishlari natijasida juda ko'plab sopol parchalari topilgan. Ular orasida qalin devorlar ko'zachalar aniqlangan. Yodgorlik milodiy IV-V asrlarda vujudga kelib, XII asrgacha hayot davom etgan.

**Kindiklitepa.** Guvalak qishlog'inining janbi-sharqiy qismida joylashgan. U Qarshi vohasining shimolilagi yirik yodgorliklardan biridir. O'lchami 12x65 m. Atrofi mustahkam devor bilan o'ralgan. U ham 1946 yilda S.K.Kabanov tomonidan ruyxatga olingan. Yodgorlik mil. av. III-II asrda vujudga kelib, milodiy VI asrgacha hayot davom etgan. U arablar bosqini arafasida aholi tomonidan tashlab ketilgan. Buni yanada aniqroq aytganda, O'rta Osiyoda eftaliylar bosqini natijasida. Uham vohadagi ayrim yodgorliklar kabi VI asrda tashlab ketiladi.

**Xo'jalitepa.** Mirmiron qishlog‘idan janubi-sharqda joylashgan. II asrdan VII asrgacha 4 ta qurilish davrini boshdan o‘tkazgan. Arablar bosqinidan keyin bu yerda hayot butunlay so‘ngan. [7.]

**Lag‘montepa.** Qarshi shahridan g‘arbda joylashgan. O‘lchami 140x140 m. Yodgorlikning markazida 25x22 m li qo‘rg‘on (arko qoldiqlari saqlanib qolgan. Yodgorlik III-V asrda vujudga kelib, IX-XI asrgacha hayot davom etgan.

**Bobokenttepa.** Qovchin qishlog‘idan janubi-g‘arda joylashgan. O‘lchami 90x70 m. S.K.Kabanov tomonidan 1946 yilda ro‘yxatga olingan. Topib o‘rganilgan sopol buyumlariga ko‘ra bu yerda hayot I-XII asrlarda davom etgan.

**Kojortepa.** Yodgorlik Shulluktepadan 15 km g‘arbda joylashgan. Umumiyligi o‘lchami 580x300 m. Arkning o‘lchami 90x80 m. Arkka janub tomonidan kirligani. 1946 yilda ro‘yxatga olingan va 1947 yilda qazuv ishlari olib borilgan. Yodgorlik III- IV asrda vujudga kelib, VI- VII asrlarda qal'a devorlari qurilgan. IX- XII asrlarda uncha katta bo‘limgan savdo-hunarmandchilik markazi sifatida yozma manbalarda tilga olib o‘tilgan.

**Dag‘aytepa.** Yodgorlik Qarshi shahridan shimoli-sharqda joylashgan bo‘lib, o‘lchami 140x150 m. Bu yodgorlik ham 1946 yilda ro‘yxatga olingan. 1954 yilda mazkur yodgorlikda S.K.Kabanov tomonidan qazuv ishlari olib borilgan. Topilgan sopol buyumlardan yodgorlikning davriy chegarasi aniqlandi. Milodiy V-VII asrda yodgorlikning atrofi mustahkam devor bilan o‘ralgan. IX-XI asrlarda yirik qishloq shaklini olgan. Buni shu davrga oid qatalmda olib borilgan qazuv ishlari natijasida topilgan kulolchilik xumdoni ham tasdiqlaydi. Bu yerda hayot mo‘g‘ullar bosqiniga qadar davom etgan.

**Kofirtepa.** Bu tepa Qarshi shahridan 1 km shimolda joylashgan yirik arxeologik yodgorliklardan biridir. Hajmi 100x70 m, balandligi 10 m. Qadimshunos S.K.Kabanov tomonidan olib borilgan kuzatuv va qazuv ishlari natijasida uni III- VI asrlarga taaluqli ekanligi etirof etilgan edi. Keyinchalik yodgorlik XX asrning 70 yillari oxirlarida B.D.Kochnev tomonidan o‘rganilgan va unda milodning II asridan XII asrgacha xayot gullab yashnaganligi aniqlangan. Hozirgi kunda mazkur yodgorlik ustida “Shon-shuhrat” qo‘rg‘oni barpo etilgan.

Qashqadaryo vohasidagi 120 dan ziyod qadimgi davr va o'rta asr shaharlari, qishloqlari va maskanlarida samarali ilmiy izlanishlar olib borildi. Voha quyi qismining janubidagi, ya'ni hozirgi Qarshi shahri atrofida ro'yhatga olingan 123 ta obidadan 59 tasi miloddan avvalgi va milodning boshlarida paydo bo'lgan deb hisoblanadi. Masalan, Yerqo'rg'on, Shulluktepa, Zahhoki Maron, Ko'hna Fazli xarobalari shular jumlasiga kiradi. Yuqori Qashqadaryo hududidagi qadimiy manzilgohlari 400 dan oshadi. Ulardan 100 dan ziyodi antik davrga oiddir. Vohamiz hududidagi katta tepalar soni 300 dan oshadi. Biroq ushbu yodgorliklarning ko'plarida limit tadqiqot ishlarini o'tkazish yo'lga qo'yilmadi.

Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlab o'taganidek "Afsuski, yurtimiz tarixini o'rganishda o'tgan davrlarda arxeologik tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmadi shuning uchun Fanlar akademiyasining Arxeologiya va San'atshunoslik institutlari faoliyatlarini, Oliy o'quv yurtlari va muzeylardagi arxeologik izlanishlarni chet ellik hamkorlar bilan birga tashkil etish zarur". [8.]

"Arxeologiya merosi ob'yektlarining muhofaza qilsh va ulardan foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunida arxeologiya merosi ob'yektlarini muhofaza qilsh va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish talablari belgilab berildi. [9.]

O'zida katta tarixiy tilsimni yashirgan mazkur tepaliklar yosh tadqiqotchi olimlar, soha yetuk mutaxassislari tomindan keng ko'lamda tadqiq erilishi, bu tarixiy ob'yektlar haqida ilmiy maqolalar, tarixiy asarlar yaratilishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ushbu tarixiy ob'yektlarni mahalliy hokimliklar tomonidan himoyalash va muhofaza qilsih choralar ko'riliishi taklif etiladi.

Bugugi kunda vohamizning aksariyat tepalari davlat muhofazasiga olingan. Qamashi tumanidagi Qiziltepa, G'uzordagi Qo'shtepa, Beshkent atrofidagi Tallikuron, Kojortepa, Sariqtepa, Bojitepa, Qoraqo'ng'iroq qishlog'i va boshqa hududlardagi o'nlab nomsiz tepalarni ilmiy jihatdan tadqiq etishga Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar diqqat-e'tiborini jalb etib, boy tarixiy manbalarimizni aniqlash beqiyos ahamiyat kasb etadi. Zero, Yangi O'zbekistonning har bir farzandi uchun Vatan tarixini sevish, o'rganish, diliqa jo

etishdan ham muqaddasroq burch bo'lmasa kerak.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Sh.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va olижаноб xalqимиз билан бирга quramiz". Toshkent "O'zbekiston"-2017 yil, 480-484-betlar.
2. J. Kabirov, A.Sa'dullayev "O'rta Osiyo arxeologiyasi". Toshkent o'qituvchi 1990 yil, 150-156 betlar.
3. R.Sulaymonov Nahshab "Unitilgan tamaddun sirlari". Toshkent manaviyat 2004 yil, 6-45 betlar.
4. N.A.Egamberdiyeva "Arxeologiya" Toshkent 2011-yil, 84-85 betlar.
5. A.Sagdullayev "Qadimgi O'rta Osiyo tarixi" Toshkent 2004-yil, 42-43 betlar.
6. N.Ismoilov, O.Bo'riyev "Qarshi-O'zbekistonning qadimiy shahri." Qarshi "Nasaf" 2006-yil, 5-6 betlar.
7. N.Ismoilov, O.Bo'riyev "Qarshi-O'zbekistonning qadimiy shahri" Qarshi "Nasaf"-2006 yil, 140-149 betlar.
8. 1. Sh.Mirziyoyev "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" Toshkent "O'zbekiston" - 2021 yil, 20-25 betlar.
9. "Arxeologiya merosi ob'yektlarining muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni hujjatlar to 'plami 2009 yil 42-son 448-modda. Mazkur qonun qonunchilik palatasini tomonidan 2009-yil 16-iuynda qabul qilingan, Senat tomonidan esa 2009-yil 29-avgustda ma'qullangan.